

E'LON!

Barcha professor-o'qituvchilar diqqatiga!

2021yil 22 noyabr kuni Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti kafedrası o'qituvchisi Nodira Sherboyeva 1-kurs talabalariga Ona tili fanidan **“Leksika (lug'at tarkibi) va leksikologiya haqida umumiy ma'lumot”** mavzusidagi ochiq amaliy darsi bo'lib o'tadi.

Ochiq darsga barcha professor-o'qituvchilarni taklif etamiz.

Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti kafedrası.

xos bu umumiyliklar leksikologiyaning asosiy tekshirish ob'yektidir.

2-§. So'z va uning belgilari. So'z tilning muhim unsurlaridan biri bo'lib, ma'lum ma'no doirasida birlashgan tovush va tovushlar majmuyidan tashkil topadi. Biroq har qanday tovushlar birligi so'z yoki uning ma'nosini shakllantira olmaydi. Masalan, *olma* so'zidagi tovushlar birligi meva tushunchasini ifodalagan holda, shu so'zdagi tovushlarning *mloa*, *oalm* shaklidagi yig'indisi hech qanday ma'noga ega emas. Ayni paytda, tovushlarning bunday birligini so'z deyish ham mumkin emas. Shunday ekan, har qanday tovush va tovushlar yig'indisi ma'no ifodalovchi vosita sifatida emas, ma'no tovush va tovushlar majmuyini shakllantiruvchi vosita sifatida muhim ahamiyatga egadir. Muayyan ma'noning tovush yoki tovushlar birligi vositasida belgilanishi esa so'zni shakllantiradi. So'zning tovush tarkibida o'zgarish yuz bersa ham ba'zan ma'no saqlanishi mumkin. Lekin bu hodisa birdaniga emas, tilning uzoq asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida ro'y beradi. Masalan *o'grat-o'rgat*, *yog'mir-yomg'ir*, *qo'nshi-qo'shni* kabi so'zlar tarkibidagi metateza hodisasi ana shunday uzoq asrlik tarixiy taraqqiyot mahsulidir. Biroq bunday tarixiy o'zgarish so'z ma'nosining yo'qolishiga olib kelmaydi. Ba'zan bunday tarixiy o'zgarishlar tilda yangi ma'no tashuvchi belgining, ya'ni yangi so'zning shakllanishiga ham olib kelishi mumkin. Jumladan, *arch*, *yoy*, *ko'r* so'zlari tarkibida yuz bergan tarixiy fonetik o'zgarishlar tufayli, mazkur so'zlarda o'ziga xos ma'no parchalanishi yuz bergan va ularning har biri hozirgi tilda alohida tushuncha ifodalovchi so'zlar sifatida shakllangan: *arch-art*, *yoy-yoz*, *ko'r-ko'z*. Bundan tashqari tilda shunday so'zlar ham borki, ular fonetik tarkibiga ko'ra bir xil (omonim), biroq ma'no jihatdan har

Amaliy mashg'ulot: Leksika (lug'at tarkibi) va leksikologiya haqida umumiy tushuncha

Tildagi so'zlarning jami uning leksikasini, ya'ni lug'at boyligini tashkil etadi. Leksikologiya (yunoncha *lexikos*-lug'atga oid va *logos*-ta'limot) tilshunoslikning lug'aviy birliklar tarkibini tekshiradigan bo'limidir.

Tilning lug'at tarkibi va uni tashkil etuvchi so'zlar bir qator umumiyliklarga ega. Ular quyidagilarda ko'zga tashlanadi: 1) tildagi so'zlar muayyan ma'no ifodalash xususiyatiga ega bo'ladi. So'zning ma'no xususiyatlari leksikologiyaning **semosiologiya** bo'limida o'rganiladi; 2) har qaday tilning taraqqiyoti jarayonida yuz beradigan o'zgarishlar avvalo uning leksikasida o'z aksini topadi. Chunki til jamiyat taraqqiyoti davomida yangi-yangi so'zlar hisobiga boyib boradi, ayni paytda ba'zi so'zlar eskiradi va iste'moldan chiqadi; 3) tilning lug'at tarkibidagi so'zlar iste'mol darajasiga ko'ra chegaralangan yoki chegaralanmaganligi bilan ham farqlanadi. Xususan, ba'zi so'zlar umumxalq iste'molida bo'lsa (*ota, ona, yurmoq, men, sen*), ayrim so'zlaning iste'mol darajasi chegaralangan bo'ladi. Masalan, shevaga oid so'zlarning hududiy chegaralanishi, shular jumlasidandir; 4) so'zlar nutq uslubiga bo'lgan munosabatiga ko'ra ham farqlanadi. Jumladan, ba'zi so'zlar uslubiy betaraf bo'lsa, ba'zilari esa nutq uslubining ma'lum turiga mansubligi bilan farqlanadi; 5) har bir so'z tovush qiyofasi va ma'noga, ya'ni shakl va mazmunga ega. Shunga ko'ra, so'zlar omonim, paronim, sinonim, antonim munosabatlarni yuzaga keltiradi. Tilning eng muhim birliklaridan bo'lgan so'zlarga xos bu umumiyliklar leksikologiyaning asosiy tekshirish ob'yektidir.

2-§. So'z va uning belgilari. So'z tilning muhim unsurlaridan biri bo'lib, ma'lum ma'no doirasida birlashgan tovush va tovushlar majmuyidan tashkil topadi. Biroq har qanday tovushlar birligi so'z yoki uning ma'nosini shakllantira olmaydi. Masalan, *olma* so'zidagi tovushlar birligi meva tushunchasini ifodalagan holda, shu so'zdagi tovushlarning *mloa, oalm* shaklidagi yig'indisi hech qanday ma'noga ega emas. Ayni paytda, tovushlarning bunday birligini so'z deyish ham mumkin emas. Shunday ekan, har qanday tovush va tovushlar yig'indisi ma'no ifodalovchi vosita sifatida emas, ma'no tovush va tovushlar majmuyini shakllantiruvchi vosita sifatida muhim ahamiyatga egadir. Muayyan ma'noning tovush yoki tovushlar birligi vositasida belgilanishi esa so'zni shakllantiradi. So'zning tovush tarkibida o'zgarish yuz bersa ham ba'zan ma'no saqlanishi mumkin. Lekin bu hodisa birdaniga emas, tilning uzoq asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida ro'y beradi. Masalan *o'grat-o'rgat, yog'mir-yomg'ir, qo'nshi-qo'shni* kabi so'zlar tarkibidagi metateza hodisasi ana shunday uzoq asrlik tarixiy taraqqiyot mahsulidir. Biroq bunday tarixiy o'zgarish so'z ma'nosining yo'qolishiga olib kelmaydi. Ba'zan bunday tarixiy o'zgarishlar tilda yangi ma'no tashuvchi belgining, ya'ni yangi so'zning shakllanishiga ham olib kelishi mumkin. Jumladan, *arch, yoy, ko'r* so'zlari tarkibida yuz bergan tarixiy fonetik o'zgarishlar tufayli, mazkur so'zlarda o'ziga xos ma'no parchalanishi yuz bergan va ularning har biri hozirgi tilda alohida tushuncha ifodalovchi so'zlar sifatida shakllangan: *arch-art, yoy-yoz, ko'r-ko'z*. Bundan tashqari tilda shunday so'zlar ham borki, ular fonetik tarkibiga ko'ra bir xil (omonim), biroq ma'no jihatdan har

xil. Bunday so'zlarda yashiringan ma'no faqat nutq jarayonida, ya'ni boshqa so'zlar qurshovidagina anglashiladi.

So'zning ikkinchi muhim belgisi uning ma'no ifoda etish va saqlash xususiyati orqali namoyon bo'ladi. Lekin ular ifodalaydigan ma'nolar bir xil emas. Chunki so'z ifodalaydigan ma'no eng umumiy xususiyati bilan ham turli tiplarga bo'linadi. Jumladan, ayrim so'zlar ob'yektiv borliqdagi narsa-hodisa, belgi, qiymat, harakat kabilarni, ba'zilar esa so'zlovchining, voqelikka munosabatini bildiradi, ba'zan esa faqat grammatik ma'no ifodalaydi. Biroq ular qanday ma'no ifodalashidan qat'iy nazar, so'z hisoblanadi.

So'zning ob'yektiv borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilar haqidagi ma'lumoti **leksik ma'no** deyiladi. Masalan, *anor*, *tosh* so'zlarining narsa haqida ma'lumot berishi, *qattiq*, *shirin* so'zlarining belgi haqida ma'lumot berishi shular jumlasidandir. Demak, so'z borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilarning atamasi – nomi bo'lishi yoki aksincha bunday xususiyatga ega bo'lmasligi mumkin. Shunga ko'ra ular mustaqil va yordamchi so'zlar turkumlariga ajratiladi. Tildagi mustaqil so'zlarga leksik(lug'aviy) ma'noga ega bo'ladi va ular leksikologiyaning asosiy o'rganish manbai hisoblanadi. So'zning borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilarni atash, nomlash xususiyati esa uning **nominativ funksiyasi** deyiladi.

3-§. Monosemantik va polisemantik so'zlar. Tildagi so'zlar bir va birdan ortiq ma'noga ega bo'lishi mumkin. Bir ma'nolilik hodisasi monosemiya, ko'p ma'nolilik hodisasi esa polisemiya deb yuritiladi. Masalan, *marmar*, *g'oya*, *xulosa*, *taassurot* kabi so'zlar va ilm - fan sohalariga doir atamalar bir ma'noli so'zlardir. O'z va ko'chma ma'nolari tufayli ikki yoki undan ortiq ma'noga ega bo'lgan so'zlar esa **ko'p ma'noli (polisemantik)** so'zlar deyiladi. Masalan: *etak - choponning etagi*, *tog'ning etagi*.

Tilshunoslikda so'zning ko'p ma'nolilik xususiyatini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ko'p ma'noli so'zlar turli usullar vositasida ma'no ko'chishi orqali o'z ma'nosidan boshqa ma'nolar ifodalagan holda tilning ifoda imkoniyatlarini boyishida muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, ko'p ma'noli so'zlar o'z ma'nosidan tashqari ko'chma ma'nolarga ham ega bo'ladi. So'zning nutqdan tashqarida, ya'ni tilda ifodalagan ma'nosi **o'z ma'nosi** deb ataladi. Masalan, *ko'z*, *etak* so'zlari yakka holda ishlatilganda uning asl, ya'ni o'z ma'nosi anglashiladi.

So'zning gap ichida, ya'ni nutqdagi o'z ma'nosidan boshqacharoq mazmun ifodalashi uning **ko'chma ma'nosi** deb yuritiladi. Masalan, *ishning ko'zi*, *tog'ning etagi* kabi birikmalar tarkibida ko'z va etak so'zlari ko'chma ma'noda qo'llangan.

4-§. So'zning ma'no ko'chish usullari. O'zbek tilida polisemantik so'zlar ma'no ko'chishning to'rt xil usuli mavjud: 1) metafora; 2) metonimiya; 3) sinekdoxa; 4) vazifadoshlik.

Metafora (yunoncha «ko'chirma» so'zidan olingan) biror narsa, belgi yoki harakatning nomi o'zaro o'xshashligi bo'lgan boshqa narsa, belgi yoki harakatga ko'chishidir. Masalan: *U tarozining ikki pallasini ko'zdan kechirdi* (I.Rahim). *Yormat tarvuzni kesdi. Bir pallasini o'zi olib, ikkinchi pallasini Yo'lchi va O'roz oldiga qo'ydi* (Oybek). Birinchi misoldagi *palla* so'zining o'z

ma'nosi taroziga nisbatan qo'llaniladi. Uning tashqi ko'rinishiga ko'ra o'xshashligi ikkinchi misolda tarvuz bo'laklariga nisbatan ham qo'llanishga sabab bo'lgan.

Metafora asosida nom ko'chish aniq narsalar doirasida bo'lganda ular o'rtasidagi o'xshashlikni ilg'ash uncha qiyin bo'lmaydi. Mavhum narsalar doirasida esa bu bir oz qiyin kechadi: *Bir qarichlikdan dutorni sevaman. Bir qo'shni kelinchakdan o'rgangan edim* (Oybek). *qo'shni dalaga qaradi, u yerda xotin-xalajlar, bola-chaqalar chuvillashib paxta terishayotgan edi* (M. Ismoilov).

Metafora asosida nom ko'chish birgina narsa nomi bo'lgan otlarga daxldor bo'lmay, boshqa turkumga mansub so'zlarda ham uchraydi. Masalan: *taqir cho'l-taqir bosh, taqir sholcha; o'tkir pichoq-o'tkir hid, o'tkir odam* kabi sifatlar; *dalalarda qushlar uchadi - uning jahldan lablari pir-pir uchardi* kabi fe'llarda ham metafora asosida ma'no ko'chishi uchraydi.

Metonimiya (yunoncha «qayta nomlash», «nomini almashtirish») narsa yoki hodisalarning makon va zamonda o'zaro bog'liqligi, doimiy aloqadorligi asosida birining nomi ikkinchisiga ko'chishidir. Bunda narsa, harakat va belgi o'rtasidagi o'zaro o'xshashlik emas, balki doimiy aloqadorlikning mavjudligi birining nomini aytganda ikkinchisini anglash, nazarda tutish imkonini beradi. Metonimiya asosida nom ko'chishda narsalar (otlar) o'rtasidagi quyidagicha uzviy aloqadorliklar asos bo'lishi mumkin: 1) narsa yasalgan materialning umumiy aloqadorligi asosida uning nomi boshqa narsaga ko'chadi: *Moyi tugab piligi so'xta bo'lgan chiroq bir lip etib so'ndi* (S. Ahmad). *Sochini mayda o'rib uchiga pilik taqqan edi* (S. Ahmad); 2) narsalarning o'ziga xos harakat-holati, xususiyati jihatdan umumiy aloqadorligi asosida uning nomi boshqa narsaga ko'chadi: *beshtik-maktab ta'lim va tarbiya beshigidir, qaldirg'och-litseyimiz qaldirg'ochlari*; 3) o'rinning unda joylashgan narsa bilan doimiy aloqadorligi asosida uning nomi boshqa narsaga ko'chadi: *kosa, qoshiq, tovoq-ovqat, zal-zal kulib yubordi, sinf-sinf oyoqqa qalqdi* ma'nolarida ishlatiladi; 4) harakat-hodisaning nomi shu harakat-hodisaning bajarilgan vaqtiga ko'chiriladi: *Machitdan shom azoni eshitildi...* (Sh. Toshmatov). *Azonga yaqin bir iloj qilib qochibdi* (P. Tursun); 5) narsaning nomi shu narsaga xos bo'lgan belgi aloqadorligi asosida ko'chadi: *tulki-ayyor, mug'ombir odam, iflos-betayin, jirkanch kishi*; 6) harakat, o'yin obyektini shu o'yinning nomi sifatida ko'chadi: *uloq-uloq chopmoq* va boshqalar.

Sifat va fe'l turkumiga mansub so'zlar doirasida ham metonimiya hodisasi mavjud bo'lib, ularda ko'chma ma'no belgining yoki harakatning aloqadorligiga asoslanadi. Masalan: *qisqa yo'l - qisqa nutq, qisqa ovoz, beg'ubor osmon-beg'ubor odam, beg'ubor ko'ngil, bola boqmoq-kishini hunar boqadi, bog'ni boqsang bog' bo'lur*.

Sinekdoxa narsa va hodisaning nomi bilan uning qismini atash yoki qismining nomi bilan shu qism mansub bo'lgan butunni atash orqali yangi ma'no hosil qilish usulidir. Masalan: *Tirnoq so'zining farzand* ma'nosida ishlatilishi (*U tirnoqqa zor edi*) qism nomi bilan butunni ifodalashidir. *Qo'l* so'zi bilan uning bir qismini, ya'ni barmoqning atalishi esa (*Qo'lga uzuk taqdi*) butun nomi bilan qismining nomlanishidir. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning quyidagi gaplardagi

ma'nolariga e'tibor bering: *Rux samovar*. *Egamberdi*, *Sen darrov o'z sol'* (*A. Qodiriy*) *samovarga chiqdi*, *ikkita choy ichdi* (*A. Qahhor*). *Devorlarda Tamara o'z qo'li bilan tikkan kashtalar osilgan edi* (*M. Muhammedov*). *U yenglariga chiroyli qizil kashtalar tikilgan ukraincha oq shoyi kofta kiygan edi* (*P. Tursun*).

Vazifadoshlik narsa va hodisalarning bajaradigan vazifasidagi birlik, o'xshashlik asosida nom ko'chishidir. Masalan, *chiroq* so'zi o'tmishda moy shimdirilgan pilik yordamida yorug'lik beruvchi moslamani anglatgan. Hozirda esa elektor yoritgichlar ham *chiroq* deb yuritiladi. Yoki tarixan qamish yoki patdan yasalgan yozuv quroli qalam deb atalgan. Hozir esa grafitli maxsus yasalgan yozuv quroli ham shu nom bilan yuritiladi. Vazifadoshlik asosida nom ko'chish so'zning ko'p asrlik tarixiy taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgani uchun ma'no ko'chishning boshqa usullariga nisbatan ancha kam uchraydi.

Ko'p ma'noli so'zlarning yuzaga kelishida polisemantik so'z va yasovchi affikslarning ham alohida o'rni bor. Masalan, *tuzsiz taom*, *tuzsiz gap* birikmalari tarkibidagi *-siz* ko'p ma'noli affiksi va o'zak birligi ko'p ma'noli so'zning yuzaga kelishida muhim rol o'ynagan. Polisemantik so'zlar, qancha ma'noga ega bo'lmasin, bu ma'nolar o'zaro bog'langan bo'ladi. Agar ular o'rtasidagi ma'no bog'liqlik davrlar o'tishi bilan uzilib qolsa, u holda bunday so'zlar o'zaro omonimga aylanadi. Masalan, *gap*-fikt, mulohaza; *gap*-tengdoshlar, hamkasblar yig'ini, ziyofati; *ko'k*-rang, *ko'k*-osmon kabilar. Keltirilgan misollarda ma'no bog'liqlikni ilg'ab olish ancha qiyin. Shunga ko'ra, aytish mumkinki, polisemantik so'zlar bir xil fonetik qobiqqa ega bo'lgan so'zlar takrori nuqtai nazaridan omonimlarga o'xshasa ham, ko'p ma'nolilik, avvalo bir turkum doirasida yuzaga kelishi, ular qancha ma'noga ega bo'lmasin, o'zaro bog'liq bo'lishi bilan omonimlardan farqlanadi. Ko'p ma'noli so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolari, odatda, izohli lug'atlarda, shakldosh so'zlar esa omonim so'zlarning izohli lug'atida beriladi.

Amaliy mashg'ulot: Leksikografiya (lug'atshunoslik)

I. Savollarga javob bering.

1. Leksikografiya qanday ta'limot.
2. Lug'at va uning turlari
3. Lingvistik lug'atlarga qaysilar kiradi?
4. Qomusiy lug'atlarga qaysi lug'atlar kiradi?

1. 1981-yilda nashr etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati" necha jildan iborat?

- A) 1 jild
- B) 2 jild
- C) 4 jild
- D) 5 jild

2. XVI asrda yaratilgan "Abushqa" lug'ati qaysi tilda tuzilgan?

- A) arab tilida
- B) usmonli turk tilida

C) o'zbek tilida

D) fors tilida

3. Lug'aviy birlik (so'z, iboralar) ko'p ma'noli bo'lsa, uning barcha ma'nolari qaysi lug'at orqali aniqlanadi?

A) frazeologik lug'at (iboralar lug'ati)

B) imlo lug'ati (orfografik lug'at)

C) sinonimlar lug'ati.

D) izohli lug'at.

4. So'zlarning ko'chma ma'nosi qaysi lug'atda izohlanadi?

A) ensiklopedik lug'atda

B) imlo lug'atida

C) frazeologik lug'atda

D) izohli lug'atda

5. O'zbek leksikografiyasida quyidagi lug'atlardan qaysisi hali yaratilmagan?

A) "O'zbek tilining morfem lug'ati"

B) "O'zbek tilining qo'shma so'zlar lug'ati"

C) "O'zbek tilining orfoepik lug'ati"

D) "O'zbek tilining chappa lug'ati"

6. O'zbek leksikografiyasida quyidagi lug'atlardan qaysisi hali yaratilmagan?

A) "O'zbek tilining morfem lug'ati"

B) "O'zbek tilining izohli etnografik lug'ati"

C) "O'zbek ismlari ma'nosi lug'ati"

D) "O'zbek tilining chappa lug'ati"

7. Bir xil qo'shimchali so'zlarni yig'moqchi bo'lsangiz, qaysi lug'atga murojaat qilasiz?

A) imlo lug'atiga

B) etimologik lug'atga

C) tarjima lug'atiga

D) ters (chappa) lug'atga

8. Ko'p tomli "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati" da necha so'z va birikma ma'nosi haqida ma'lumot berilgan?

A) 80000 so'z va birikma

B) 65000 so'z va birikma

C) 70000 so'z va birikma

D) 60000 so'z va birikma

**BOSHLANG'ICH TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI
YIG'ILISH BAYONNOMASI**

22.11.2021 yil

Qatnashdilar: kafedraning
a'zolari

Kuntartibi:

1. Kafedra o'qituvchisi Sherboyeva Nodiraning ochiq amaliy darsi muhokamasi.

Eshitildi:

Kun tartibidagi masala yuzasidan kafedra mudiri f.f.d. G.Jumanazarova so'zga chiqib, kafedra o'qituvchisi Sherboyeva Nodira boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs 105-guruh talabalariga Ona tili **“Leksika (lug'at tarkibi) va leksikologiya haqida umumiy ma'lumot”** mavzusidagi ochiq amaliy darsi o'tganligini haqida ma'lumot berdi va o'tilgan ochiq darsni muhokama qilinishini yig'ilish qatnashchilariga ma'lum qildi.

Muhokama davomida kafedra professor-o'qituvchilari o'z fikr va mulohazalarini bildirdilar: katta o'qituvchi F.Isroilova o'qituvchi Sherboyeva Nodiraning darsni juda ham bir yaxshi olib bordi. Darsga zarur bo'lgan barcha jihozlar joy-joyida bo'ldi. O'tilgan mavzuni talabalarga zamonaviy texnologiyalar asosida, taqdimotlardan foydalangan holda yetkazib bera oldi deb o'ylayman. Umuman olganda darsni ijobiy baholayman.

Katta o'qituvchi X.Abdullayev : kafedra o'qituvchisi Sherboyeva N kafedramizning iqtidorli o'qituvchilaridan biri hisoblanib, uning bugungi o'tgan ochiq ma'ruza darsini namunali tarzda o'tdi deb o'ylayman. Masalan, darsni o'z vaqtida boshladi, darsiga talabalarni qiziqitira oldi, darsni qiziqarli olib bordi. Uning bitta yutug'i zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z o'rnida qo'llab, mavzuning amaliy ahamiyatini talabalar ongiga yetkaza oldi. O'tkazilgan ochiq ma'ruza darsini namunali dars sanab, uni ijobiy baholashni taklif qilaman.

O'z fikr va mulohazalarini bildirish uchun so'z olganlar boshqa professor-o'qituvchilar yuqorida aytilgan fikrlarni to'la tasdiqladilar.


Kafedra yig'ilishi kafedra o'qituvchisi Sherboyeva Nodiraningning ochiq amaliy darsi muhokamasi yuzasidan qaror qabul qiladi.

Qaror:

1. Kafedra o'qituvchisi Sherboyeva Nodiraning Ona tili **“Leksika (lug'at tarkibi) va leksikologiya haqida umumiy ma'lumot”** mavzusidagi ochiq amaliy darsi talab darajasida deb topilsin.
2. Kafedra o'qituvchisi Sherboyeva Nodira dars o'tish uslubi kafedraning yosh o'qituvchilari orasida ommalashtirilsin.
3. Ushbu qarorning ijrosini o'z zimmasida qoldiraman

Yig'ilish raisi

Kotiba



Jumanazarova G.

Nishonova I

ОЧИҚ МАШГУЛОТЛАР ТАХЛИЛИ ВАРАҚАСИ

Фаннинг номи снп ф.и.б. Сана 27 ноябрь
 Педагогнинг Ф.И.О.: Мирвоҳид Нодир
 Аудитория 511 Факультет Решленгач ф.и.б.и.п.о.и.п.
 Гуруҳ 104 Таълим
 йуналиши КТМ

Талабалар сони: 50 нафар, катнашди + нафар, катнашмади 1 нафар
 Машгулот тури (назарий, амалий семинар, лаборатория) амалий
 Ўқув-меъёрий хужжатлар: фан бўйича ЎУМ mavjud, тақвим-мавзули режа mavjud
 Мавзу: Вектор (uzat tanimi) va vektorlar va
haqida umumiy notalar.

1. Ташкилий қисмининг тўғри ўтказилганлиги: salomlashish
hujjatlarini o'qish
amaliyati.

2. Дарс мавзусига оид жиҳозланганлик даражаси (компьютер, проектор, телевизор, кўргазма материаллар ва жиҳозлар билан таъминланганлиги)
Рақамли видео кўрсаткич ва проекторда
foydalaniladi.

3. Назарий билимларни эгаллаганлиги (таълимнинг меъёрий хужжатлари билан боғласа, қонуниятлари ва хусусиятларини очиб берса, кўшимча ҳамда хорижий манбаларга таянган ҳолда талабаларга мавзунини етказиб бера олса - 2 баллгача)
o'quvchilarni nazariy bilimlarini
hujjatlaridan foydalanib o'qitishni
amaliyotdan foydalanishni taqdim etish
biladi. 2 ball

4. Амалий кўникмалар шаклланиши (назарий ва амалий таълимнинг ўзаро алоқадорлигини, энг аввало, ўқув машгулотлари тузилмасида маъруза, семинар, амалий, лаборатория ва машгулотнинг бошқа турларини узвий бирликда амалга ошира олса, маъруза материалини талаба томонидан муваффақиятли ўзлаштирилиши учун машгулотлар амалий иш билан уйланишда ташкил этилса - 2 баллгача)
amaliyotni nazariy bilimlar bilan
uzviy bog'lanishni taqdim etish
biladi. 2 ball

5. Ўқитишда фаннинг замонавий тенденцияларини эгаллаганлиги (таълим-тарбия жараёнини ташкил этишнинг концептуал асослари, педагогик жараёнларни лойиҳалаштириши,

педагогик фаолиятда юзага келадиган муаммолар ва уларни ҳал этиши стратегияла
 ўқув материалларини тизимлаштиришнинг дидактик талаблари, таълим жараёни
 сифат ва рақобатбардошликка эришиши омиллари, интерфаол таълим воситасида
 талабаларда мустақил фикрлаш маданиятини шакллантириши, компетентли ёндашув
 асосида бўлажак мутахассисларни касбий шакллантириши, таълим-тарбия жараёнини
 таъкил этишига доир замонавий ёндашувлар, талаба-ёшларда қадриятлар тизими ва
 мафкуравий иммунитетни шакллантириши, ахборотлар глобаллашган даврда
 талабаларда ахборот маданиятини шакллантириши, талабаларнинг глобал фикрлашини
 шакллантиришини назарий тушунтира олса - 2 баллгача)

Маълим алоқаси мустақил фикрлаш
 таълим жараёнида
 берилган баъзи замонавий
 унда шундан эътибор берилган эътибор

6. Педагогик маҳорат ва нутқ маданиятини эгаллаганлиги (педагогик маҳорат ва унинг таркибий
 қисмлари, педагогик техника ва ундан таълим жараёнида оқилона фойдаланиши,
 ўқитувчининг актёрлик ва режиссёрлик маҳорати, нутқ техникасини эгаллаш, таълим
 жараёнининг самарадорлигини оширишнинг муҳим омилли эканлигини англаган бўлса,
 педагогик жараёни самарали бошқариши усулларини билса, педагогик таъсир кўрсатиши
 методларини қўллай олса, педагогик тажриба ва уни бойитиши йўлларини эгаллаган бўлса,
 унинг имиджи ва унга қўйладиган талабларга жавоб берса - 2 баллгача):

Педагог баъзи нутқ маданияда
 эътибор берилган мустақил фикрлаш
 эътибор берилган эътибор

7. Мустақил ўзлаштириш учун топшириқлар берилганлиги:

Баъзи томонидан мустақил
 эътибор берилган эътибор

8. Педагог ходимнинг ютуқлари ва камчиликлари:

Баъзи ходимнинг ютуқлари
 деярли ундан деярда баъзи
 баъзи ундан

9. Ўтилган машғулот юзасидан (илмий, методик, педагогик, психологик) таклифлар:

Баъзи баъзи методик таклифлар
 баъзи эътибор баъзи
 баъзи ундан баъзи

Педагог ходим томонидан тўпланган умумий балл (8 баллгача) 2 балл

Дарс кузатувчи: Шариф Умаров

Машғулот ўтган педагог ходимнинг имзоси: Шариф Умаров

A. Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat Pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti kafedrası o'qituvchisi Sherboyeva Nodiraning "Leksika (lug'at tarkibi) va leksikologiya haqida umumiy ma'lumot" mavzusidagi ochiq darsiga

TAQRIZ

Tildagi so'zlarning jami uning leksikasini, ya'ni lug'at boyligini tashkil etadi. Leksikologiya (yunoncha *lexikos*-lug'atga oid va *logos*-ta'limot) tilshunoslikning lug'aviy birliklar tarkibini tekshiradigan bo'limidir.

Tilning lug'at tarkibi va uni tashkil etuvchi so'zlar bir qator umumiyliklarga ega. Ular quyidagilarda ko'zga tashlanadi: 1) tildagi so'zlar muayyan ma'no ifodalash xususiyatiga ega bo'ladi. So'zning ma'no xususiyatlari leksikologiyaning semasiologiya bo'limida o'rganiladi; 2) har qaday tilning taraqqiyoti jarayonida yuz beradigan o'zgarishlar avvalo uning leksikasida o'z aksini topadi. Chunki til jamiyat taraqqiyoti davomida yangi-yangi so'zlar hisobiga boyib boradi, ayni paytda ba'zi so'zlar eskiradi va iste'moldan chiqadi; 3) tilning lug'at tarkbidagi so'zlar iste'mol darajasiga ko'ra chegaralangan yoki chegaralanmaganligi bilan ham farqlanadi. Xususan, ba'zi so'zlar umumxalq iste'molida bo'lsa (*ota, ona, yurmoq, men, sen*), ayrim so'zlarning iste'mol darajasi chegaralangan bo'ladi. Masalan, shevaga oid so'zlarning hududiy chegaralanishi, shular jumlasidandir; 4) so'zlar nutq uslubiga bo'lgan munosabatiga ko'ra ham farqlanadi. Jumladan, ba'zi so'zlar uslubiy betaraf bo'lsa, ba'zilari esa nutq uslubining ma'lum turiga mansubligi bilan farqlanadi; 5) har bir so'z tovush qiyofasi va ma'noga, ya'ni shakl va mazmunga ega. Shunga ko'ra, so'zlar omonim, paronim, sinonim, antonim munosabatlarni yuzaga keltiradi. Tilning eng muhim birliklaridan bo'lgan so'zlarga xos bu umumiyliklar leksikologiyaning asosiy tekshirish ob'yektidir.


Mavzuni o'rganish davomida ochiq amaliy dars jarayonida ta'lim oluvchilarni faollashtirish natijasida bilimlari kengayib o'zlariga yetarli ma'lumot va tushuncha olganliklarini ko'rish mumkin. O'qituvchi N. Sherboyeva bu mavzu bo'yicha o'tkazilgan ochiq darsi qoniqarli deb hisoblayman.

Boshlang'ich ta'lim nazariyasi
va amaliyoti kafedrası katta katta o'qituvchisi:



F. Isroilova

OCHIQ DARSDAN LAVHALAR



OCHIQ DARSDAN LAVHALAR

